



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Pedagogika fakulteti

dekani: _____ dots. Sh. Nurillayeva

“ _____ ” _____ 2015 yil

Qodirova Charos Eshmo'minovning

5110800 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

“O'quvchilarga naqqoshlik kompozitsiyasi tuzish yo'llarini
o'rgatish” mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

E. Jabborov

QARSHI – 2015

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I-BOB. Xalq amaliy san’atida naqqoshlikning amaliy-ijodiy asoslari	
1. 1 Naqqoshlik san’atining tarixiy rivoji, uning maktablari va namoyondalari.....	6
1. 2. Naqqoshlik san’atida kompozitsiya tuzishda ishlatiladigan naqsh turlari va naqsh elementlarining o‘ziga xosligi.....	11
II-BOB. Naqsh kompozitsiyalarini tuzish qonuniyatlari va bosqichlari	
2. 1. Naqqoshlik mashg‘ulotlarida kompozitsiya tuzishning asosiy qonunlari usul va vositalari	24
2. 2. Naqqoshlik mashg‘ulotlarida mustakil naqsh kompozitsiyalarini tuzish.....	28
2. 3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7 – sinf tasviriy san’at darslarida, “Amaliy bezak san’atining obrazli tizimi” mavzusining o‘qitish uslubiyati.....	33
XULOSA.....	44
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	45
ILLYUSTRATSIYALAR.....	46

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va faravonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarni o‘zgartirish, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi ekani, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarining yutuqlari asosida tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim sharti ekani ta’kidlangan.

Darxaqiqat, mamlakatimizning istiqbolga erishishi eng muhim ijtimoiy omil sifatida xalq turmush tarzining tubdan o‘zgarishiga asos bo‘ldi. Bunday o‘zgarish ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy sohalarning rivojlanishiga imkon beradigan nazariy hamda amaliy asoslarni tadqiq qilish, ularni jadal tarzda turmushga joriy etish vazifasini qo‘ydi. Xalqimiz mustaqillikka erishganidan keyin amaliy san’at sohasida ham bir qator o‘zgarishlar vujudga keldi. Jumladan, kasb-hunar o‘rgatish mazmuni va metodikasi hamda tizimi tubdan o‘zgardi. Bu siyosiy jarayon mustaqil davlatimizning «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da o‘z aksini topdi. Mustaqil davlatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etish vazifasi amaliy san’at oldida turgan, o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.

Malakaviy ishning asosiy maqsadi xalq amaliy san’at to‘garaklarida talabalarga hunar o‘rgatishda naqqoshlik mashg‘ulotlarida kompozitsiya tuzishni o‘rgatishning nazariy va amaliy jihatlarini tajribalarda qo‘llash.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Talabalarda naqqoshlik san’ati tarixi, texnologiyasi oddiy naqsh namunalaridan tortib to naqqoshlik san’atida kompozitsiya tuzishda ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

Naqqoshlik mashgʻulotlarida kompozitsiya tuzishni oʻrgatish;
-naqqoshlik mashgʻulotlarida oʻquvchilarga axlokiy, gʻoyaviy, mehnat va estetik tarbiya berish.

Naqqoshlik mashgulotlarida kompozitsiya tuzish asoslari va unga qoʻyiladigan talablar bilan tanishtirish;

Naqqoshlik mashgulotlarida ishlatiladigan materiallar va asbob-uskunalar, ularni ishga tayyorlash;

oʻquvchilarga oddiydan murakkabga qarab naqqoshlik mashgʻulotlarida kompozitsiya tuzish asoslarini mukammal tuzishni oʻrgatish;

oʻquvchilarga naqqoshlik mashgʻulotlarida kompozitsiya tuzish asoslari olgan bilim malakalarini mustahkamlash, turli shakldagi buyumlarga naqsh kompozitsiyasi tuzishni oʻrgatish, shu bilan birga ranglarni mos keladigan qilib tanlash, turli materiallarga ishlov berishga eʼtibor qaratadi;

Naqqoshlik mashgulotlarida kompozitsiyasining naqshlash usullarini oʻrgatish;

naqqoshlik darslari asosida Sharq amaliy sanʼatining goʻzalligi, falsafiy, ruhiy va tarbiyaviy qirralari bilan tanishtirish.

Mavzuni yoritishda asos qilib olingan naqqoshlik mashgulotlarida kompozitsiya tuzish asoslarini oʻrganilishi va dars jarayonlarida samarali darajada foylanilishi kabi masalalar ilm-fan oldidagi qator vazifalardan biridir.

Ilmiy, amaliy, ijodiy ahamiyati. Naqqoshlik mashgʻulotlarida kompozitsiya tuzish avvalo, oʻquvchi ongida kompozitsiya va naqqoshlik haqidagi tasavvurlar shakllanishi va yangi maʼlumotlar bilan boyitilishiga keng imkon beradi, amaliy sanʼatning ushbu turini sirli qirralarini oʻrganish, ularni real koʻrinishda tasvirlash va oʻrganishda, kerak boʻlsa qiziqishda ilmiy, amaliy, ijodiy ahamiyatga ega.

Mavzuning predmeti. Naqqoshlik mashgʻulotlarida kompozitsiya tuzishning mazmuni, qonun-qoidalari, didaktik prinsip va tamoyillari.

Mavzuning obykti. Naqqoshlik mashgʻulotlarida tuzilgan kompozitsiyaning amaliy ishlanmasi.

Mavzuning malakaviy yangiligi.

-xalq amaliy san'atida naqqoshlikning amaliy-ijodiy asoslarini o'rganishga;

- naqqoshlik san'atining tutgan o'rni va rivojlanish tarixi bilishga;

-naqqoshlik san'atida ishlatiladigan naqsh turlari, naqsh elementlari bilan tanishishga;

-naqsh kompozitsiyalarini tuzish qonuniyatlari va bosqichlari haqidagi bilimga;

-naqqoshlik mashg'ulotlarida kompozitsiya tuzishning mohiyati va mazmunini anglashga;

-naqsh kompozitsiyalarini bo'yash, pardoqlash qonuniyatlari haqidagi bilimga ega bo'lishga erishildi.

I-BOB. XALQ AMALIY SAN'ATIDA NAQQOSHLIKNING AMALIY-IJODIY ASOSLARI

1. 1. Xalq amaliy san'atida naqqoshlik san'atining tutgan o'rni va rivojlanish tarixi

Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o'ylantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi.

Naqsh – arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Quyosh, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan xosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulol-chilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, panjaralar va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o'yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi naqqoshlik san'ati tarixi insoniyat madaniyati bilan qatorda qadimiydir.

Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqadi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Chunonchi, Xitoyda, Qadimiy Eronda, Xindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitga: geografik o'ringa, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa har xil hayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklarda va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Yevropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi.

Naqqoshlik maktablari. Xiva, Qo‘qon, Buxoro xonliklari davrida xalq amaliy san’ati ustalari shu shaharlarga yig‘ila boshladilar. XIX asr arxitektura yodgorliklarni kuzatsak, ular bir xil uslubda yaratilganligini ko‘ramiz. Chunki o‘sha vaqtlari naqqoshlar ish axtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo‘yicha boshqa shaharlarga borib binolarni bezatar edilar. Ko‘pincha Farg‘ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo‘qon, Marg‘ilon ustalari Toshkentga kelib ko‘pgina binolarni bezar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga o‘ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta rol o‘ynadi. Lekin bu naqshlar bir-biriga o‘xshasada har bir shahar va har bir ustaning o‘ziga xos rang majmuasi, koloriti, uslubi, kompozitsiyasi jihatidan farq qiladi. Agar biz XX asr orasida yaratilgan ishlangan naqshlarni kuzatsak, har bir rayon va viloyatning o‘ziga xos naqqoshlik maktablari yaratilganligini ko‘ramiz.

Farg‘ona naqqoshlik maktabi. Farg‘ona naqshi Xo‘jand, Marg‘ilon, Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon, Nallangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublardan iborat. XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo‘lgan naqshlar ko‘plab osori atiqalarda saqlanib qolgan. Qo‘qondagi Madalixon dahasi va Dahai Shohon, Xudoyorxon o‘rdasidagi va boshqa naqshlar o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lsada, Farg‘ona naqshlarida ko‘proq Buxoro, Xiva naqshlarining ta’siri bor. hattoki rus naqqoshlarining uslubi ham undamunda uchrab turadi. Chunki o‘sha vaqtlarda usta naqqoshlar ish axtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo‘yicha boshqa shaqarlarga borib, naqsh bilan binolarni bezatar edilar. Lekin Farg‘ona vodiysida o‘ziga xos naqqoshlik maktabi rivoj topgan edi. Farg‘ona naqqoshlari girih, o‘simliksimon (islimiy) va gulli girih naqshlarini bezaklarda qo‘llaganlar. Kompozitsiyalarning simmetriyali bo‘lish prinsipiga amal qilganlar (Qo‘qonlik naqqosh S.Mahmudovning ishlagan naqshi). U boshqa naqqoshlik maktablaridan naqshlarining tabiatga juda yaqinligi, erkin ishlanishi, ranglarining kontrastligi bilan farqlangan. Bulardan tashqari Farg‘ona naqshlarida tabiatdagi gul, barg, g‘uncha va boshqalardan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanilgan. Chunonchi Farg‘ona naqshlariga qarasak, pista gul, anor, atirgul, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin.

Farg‘ona vodiylaridagi naqsh kompozitsiyalarning tabiatga juda yaqinligi Toshkent, Xiva va Samarqand naqshlaridan ajralib turadi. Farg‘onada naqqoshlar chetlari chiroyli qilib, ichiga islamiy shakl tushirilgan qizil, yashil bo‘yoqlar bilan turunjni afzal ko‘radi. Farg‘ona naqqoshlik maktabining namoyandalaridan biri Saidmahmud Norqo‘ziyevdir

Toshkent naqqoshlik maktabi. Toshkent naqshlari o‘zining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o‘tishi, aniq bir koloritga qat’iy rioya qilinishi, geometrik va o‘simliksimon naqshlarning ko‘p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko‘pincha yashil gammada ishlanadi. o‘simliksimon naqshlardan oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar aniq stillashtirilgan. Murakkab geometrik naqshlar ishlanadi. Naqqosh ustalardan Jalil Hakimov, Toyir To‘xtaxo‘jayev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Anvar Ilhomov, Komil Karimov va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabining assoschilaridirlar.

Y. Raufov naqsh kompozitsiyasi tuzilishi jihatidan an’anaviy milliy naqshlarga doimo yangi element va motivlar kiritgan. Y. Raufov kompozitsiya tuzishda sodda, uzoq-yaqinini yaxshi bilardi. U naqsh kompozitsiyalarini uzoqdan ham ko‘rinishini ta’minlar edi. Usta naqsh ishlashda ko‘proq chirmoviqsimon o‘sovchan islamiy mazmundagi naqshlari bilan va katta-kichik yuzalarni to‘g‘ri taqsimlashi hamda mayda kichik buyumlar formasiga nihoyatda uzviy ravishda birlashib ketgan odmi naqshlarning kamsuqumliligi bilan ham ajralib turadi. Y. Raufovning naqshlarini kuzatar ekanmiz, naqsh sxemasini erkin, chiroyli shakllar hosil qilib ishlanganligi hamda naqsh elementlaridan unumli foydalanganligini ko‘ramiz. Uning naqshlarining ko‘pchiligi tojik naqshlariga o‘xshab ketadi, uning gullari yirik-yirik hamda o‘ziga xos detallardan iborat. U bargli gullar besh va sakkiz bargli gullar, ya’ni «Xitoy afsonlari» hamda oddiy gullardan foydalangan. Usta tumorchi naqsh tartibida naqsh kompozitsiya tuzib, har bir tumor gulni aniq oq chiziq bilan ajratib, ularning zaminini esa turli ranglar bilan bo‘yagan. Usta turli shaharlarga borganda har bir joyning o‘ziga xos an’anasiga moslab naqsh bajargan. U hamma joyda ham bir qolipdagi naqshlarni hech qo‘llamay, yangi-yangi naqshlar to‘qib tuzib bo‘yagan. Y. Raufovning yirik me’morchilik

inshootlariga yoki maishiy buyumlarga ishlagan naqshlarini kuzatsak chiziq va ranglarning bir-biriga g'oyat uyg'unligini sezamiz. Usta ko'k, havorang yonida pushti rang qo'llashi naqshni buzmay balki, bu ikki rang bir-birini to'ldiradi, butunlik hosil qiladi. Uning hayoti davomida turli shaharlarda qilgan ishlari o'ziga xos maktab vazifasini o'tadi, tajribasini boyitdi. Y.Raufov naqshlarni bo'rttirib, tilla qalli nozik plastinkalarni ham qo'lladi. YA'ni kundal texnikasidan ham foydalandi. Bu texnikada naqshlarni bajarilishi o'ziga xos joziba, ko'rinish berishini ko'ramiz. Usta muhtasham binolarning peshtoqlari, aroqilari, navolari, shiftlariga bergan naqshlari bino chiroyini yanada ochadi hamda xonalarga fayz va alohida latofat bag'ishlaydi. Sharqqa mashhur bo'lgan naqqosh Maoniy aytganidek «Agar kimki rasmdagi har bir chiziqqa jon bag'ishlay olar ekan, u san'at kalitini egallagan bo'ladi».

T To'xtaxo'jayev murakkab motivlardagi naqsh kompozitsiyasini tuza olgan. Ustaning oltinsimon — jigarrang gamma o'zbek naqshini rivojlantirishda qo'yilgan yangi bir qadam bo'ldi (Xontaxta. Naqqosh T. To'xtaxo'jayev bajargan.). O'sha davrga qadar bu sohada yashil rang asosiy o'rinni egallab kelar edi. Lekin usta jigarrang bilan bronzani aralashtirib yangi politra yaratdi. Bu yaratilgan gamma chiroyli va nafis bo'lib chiqdi va bu yangi politrani boshqa ustalar ham darhol o'zlashtirdilar. Bir xil tanlangan rang gammasi naqshinkor mebellar, dub, qora qayin va boshqa yog'ochlardan yasalgan uy buyumlariga juda uyg'unlashib ketar edi. Ma'lumki, naqqosh ustalar bezashda avval yashil moviy ranglardan foydalangan. T. To'xtaxo'jayev bu ranglarni ijodiy o'rganib, arxitekturada iliq ranglar bilan bezash mumkinligini amalda isbotlab berdi. Chunonchi uning yaratgan asarlari hozirda O'zbekiston san'ati muzeyida va xalq amaliy san'ati muzeylarida 8 qirrali kursi, xonataxta, yodgorlik buyumlari, zebziynatlar saqlanadigan qutichalar va boshqa badiiy buyumlar misol bo'la oladi. Bu asarlar muzeylarimizning doimiy ekspozitsiyasiga aylanib qolgan. Ustaning oltinsimon jigarrang naqshlar bilan bezalgan xalq amaliy san'ati buyumlarini faqat O'zbekistondagina emas balki chet ellarda xarid qiluvchilarning ham diqqatini o'ziga tortgan.

U an'anaviy milliy naqshlarga yangi elementlar kiritib, san'at kalitini egalladi. Toyir To'xtaxo'jayev og'ir kasalligi tufayli ancha yosh olamdan o'tdi. O'zbekiston xalq rassomi, Davlat mukofotining laureati ganch o'ymakor usta Mahmud Usmonov o'zining «San'atim — saodatim» degan risolasida Toyir To'xtaxo'jayevni shunday xotirlaydi: «... ajoyib naqqosh Toyir To'xtaxo'jayev bilan ko'pgina ijodiy davrlarda va musobaqalarda birga bo'ldik. Toyirjon kamgap, kamsuqum, doimo o'z ishi bilan band, mehnatkash edi»— deydi. haqiqatdan ham T. To'xtaxo'jayev sharq xalqlari madaniyatiga o'chmas iz qoldirgan ulug' san'atkorning ko'plab shogirdlari bugungi kunda yoshlarga qadimiy san'at sirlarini an'ana tariqasida butun bilim va mahoratlarini o'rganmoqdalar.

Xammamizga ma'lumki, o'tmishda o'z ilmini meros qilib qoldirib ketmagan, aniqrog'i, shogirdlar yetishtirmagan ustani haqiqiy ustoz hisoblashmagan. Hozirda ustaning ishlarini an'ana tariqasida davom ettirayotgan talantli shogirdlari Abdulla Abdurahmonov, Q. Qosimov, X.Ishoqjonov, I. Mamadaliyev, K. Norqo'ziyev, N. Xusanov, S. Shukurov va boshqalar jumhuriyatimizning turli joylarida ijod qilib yoshlarga bilim va mahoratlarini o'rgatmoqdalar. Shuning uchun ham xalqimiz «Yaxshi san'atkor ikki umrga ega» deb bejiz aytishmagan.

Buxoro naqqoshlik maktabi. Buxoro naqshi hamma naqshlardan naqsh kompozitsiyalarining murakkabligi, mukammalligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girihlar aniq, puxta o'lchamda ishlatilishi o'simliksimon naqshlarning o'ziga xos san'at bilan ishlangani naqshlarning yaproq, meva, gul barglar ritmiga alohida e'tibor berilishi bilan farqlanadi.

Samarqand naqqoshlik maktabi. Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlari o'ta guldorligi barg va gullarining badiiy harakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girihlar, bilan aniq bir ritmik takrorlanuvchan naqshlar kompozitsiyasi bilan Toshkent naqshlariga o'xshash. Avval zangori rang gammasida ko'p naqsh bajarilgan bo'lsa, hozir esa yashil rang gammasida ko'proq naqshlar bajariladi. Samarqand naqqoshlik maktabini yaratishda Usta Rahmonxol, usta Jamoliddin

(Mirjamol), usta Mahmud, usta Abdujabbor, usta Abduzohid, usta Sharif, usta Aminjon, usta Baqo keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilovlar kabi naqqoshlar asos soldilar va bebaho hissalarini qo‘shdilar.

1. 2. Naqqoshlik san’atida kompozitsiya tuzishda ishlatiladigan naqsh turlari va naqsh elementlarining o‘ziga xosligi

O‘zbekiston territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san’atining rivojlanganligi ma’lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I asr) budda ibodatxonalarida qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqal’a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma’lum. VI-VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o‘yma naqshlar hamda tavsirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo‘ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko‘rib hayron bo‘ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, rasmlar urushi, manzaralar hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli mahluqlar qizil va ko‘k ranglar bilan bo‘yab tasvirlangan.

VII asrning oxiri VII asrning boshlarida O‘rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o‘zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi g‘oya O‘rta Osiyo tasviriy san’atiga ta’sirini o‘tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks ettirish man etildi. «Keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharhlar va hodisalar ko‘proq muhosasiz yo‘l tuta borib, qat’iy ravishda shunday der edi: «Tangri yoki odamzod suratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini solin, aks holda hech kim biror narsa yaratish u yoqda tursin, hatto Xudo yaratgan narsani qayta gavalantirishi ham mumkin emas va bu uning qshlidan kelmaydi, aks holda musavvir Xudo bilan bas boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo‘ladi».

Islom talablariga bo‘ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo‘qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o‘zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigroffika) uslubi paydo bo‘ldi. Arab yozuvini naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham

duo-afsunlar vazifasini bajardi. Xullas tasviriy san'at rivojlanmaydi. Buning hisobiga xalq amaliy bezak san'ati naqqoshlik hisobiga rivoj topdi. IX – X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g'isht qalb naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa, maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbiq va boshqalar naqadar mo'ligini ko'ramiz.

Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqealıklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o'ziga xos ma'no bo'lgan. Chunonchi, o'simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pechak islīmiy» naqshi boylīk va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi. Musavvirlarning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muxabbatini bildiradi. Uning ranglari o'ziga xos ma'no va xarakterga ega. Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo'lib kelgan. Eng oddiy prinsplari bir-biriga munosabatlik, uyg'unlik yo'sin va usullarni ajoyib qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yo'qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI-XII asrlarda O'zbekiston territoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan.

Temur va temuriylar davrida hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi.

U tikuvchi, toshtarosh, zargar, kulol, naqqosh va boshqa ustalarni olib kelib ishlatgan. Shu san'at turlari qatori naqqoshlik ham tez rivojlana boshladi. Temur hukmronligi ostida juda ko'p bino, machit, madrasa va boshqalar qad ko'tardi. Undagi bezaklar yanada badiiylashtirildi. Xullas, u o'zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda juda ko'p hissa qo'shdi. Ayniqsa, tasviriy san'at qaytadan tiklanib, tez orada rivojlanib ketdi. Devorlarda osmon, sobit,

sayyoralar, tog'lar, dengizlar, sahrolar, odamlar, hayvonlar va boshqalar aks ettirildi.

O'sha davrda tasviriy san'atning asosiy vazifasi hukmdorlarning kuch-qudratini, harbiy shavkatini ulug'lashdan iborat edi. Afsuski, ko'pgina urushlar oqibatida hozirgacha qasrlardagi, turar joylardagi va jamoat binolaridagi tabiat rasmlari bizgapa yetib kelmagan. Ayrim qoldiqlargina saqlab qolingan. Ayniqsa, oppoq ganch ustidan chizilgan gullar, manzaralar, qushlar tasviri nihoyatda nafis ifodalangan. «Tabiat manzaralari musavvir tomonidan shu qadar ustalik va chaqqonlik bilan ado etilganki, uning qo'li bamisoli qush parvozidan erkin harakat qilgan, shoir tili bilan aytganda, "tutgan mo'yqalami musavvirning o'z barmoqlariday aniq harakat qilgan, usta bilan qil o'tmas do'st mo'yqalam go'yo uning amriga mahtalday»

XIV – XV asrlarda koshinkorlik rivojlandi. Qurilgan binolarni koshin va parchinlar bilan bezatish avj oldi. Koshin va parchinlardan ajoyib naqshlar hosil qilishga erishildi. Chunonchi, Samarqanddagi Shohi Zinda kompleksi, Ashratxona, oqsaroy, Ko'hna Urganchdagi To'rabekxonim maqbarasi va boshqa-lardir. XI asrda naqqoshlik san'ati yanada rivojlandi. Natijada naqqoshlikda kundal texnikasi paydo bo'lib rivoj topdi. Samarqandda Ashratxona, Oqsaroy maqbaralari va boshqa arxitektura yodgorliklarining ichki qismini kundal usulida bezatildi.

O'rta Ociyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashxur. O'tmishda ota-bobolarimiz qurgan muxtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yuqotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni xayratga solib kelmokda.

Islom talablariga buysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo buldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi.

Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san'atning bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muxim bulagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan ug'ilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqsh san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof muxitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar uyini musiqadagi ohang singari, qo'shiq va ertak kabi "xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan" iborat bo'ladi.

Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg'unligida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan moxirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi.

O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador arakilarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va xashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islimi va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko'proq interyerlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda naqshdan me'morchilikda, uy jihozlari, sovg'alar, mayda yog'och o'yinchoklar, musiqa asboblari va turmushda kerakli buyumlarni bezashda foydalaniladi.

Xalq naqqoshlik san'atini o'rganish o'quvchilarda badiiy didni, mehnatsevarlikni rivojlantirishga va qator foydali bilim hamda malakalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va o'stirishga yordam beradi.

Ma'lumki har bir naqsh namunasi o'ziga xos naqsh elementlarini yig'indisidan iborat. Stilizatsiya asosan o'simlik va xayvonot dunyosidan olingan turli shakllar masalan, butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar va shu kabilarning tabiiy shakllarini qayta ishlash demakdir. Bunda tanlangan shaklni naqsh kompozitsiyasi tarkibiga qo'shish mumkin bo'lgan bezak shakliga keltiriladi. Bunda o'quvchi butun bir yaxlit predmetning tashqi ko'rinishlarini bir nechta badiiy chiziqlar yordamida aniq lunda qilib tasvirlashni o'rganadi. Xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jami naqshlar tabiat hamda voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyuladi, lekin novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshda o'z aksini topgan. Usta chizadigan naqsh shunchaki kog'oz betini to'ldirish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun - qoidalariga amal qilgan xolda manzara tasvirini chizishdan iboratdir. Badiiy naqsh ishlash jarayonida o'quvchilar quyidagilarni puxta o'zlashtirib olishlari zarur:

atrof muxitdagi, tabiatda mavjud bulgan tabiiy shakllarni kayta ishlash, ya'ni stilizatsiyalash yullarini bilishlari, undan samarali foydalana olishlari kerak.

berilgan naqsh elementlari yoki namuna asosida yangi naqsh kompozitsiyasini tuza olishlari.

mustakil ravishda yangi naqsh kompozitsiyasini tuza oladigan bo'lishlari.

Naqsh elementlari bilan tanishtiruv mashg'ulotlarida ukituvchi o'quvchilarni tabiat kuyniga sayoxatga olib chikadi va ular mashg'ulotlarda urgangan nazariy xamda amaliy bilim malakalari asosida, o'simliklar, xayvonot dunyosini kuzatadilar va "stilizatsiyalashtirish" orkali ularning badiiy tasvirlarini, shakllarini xosil kilish bilan bevosita shugullanadilar. O'quvchilarga maxsus ketma-ketlik asosida tuzilgan rangli yoki oq-qora fotosuratlardan foydalanish orqali tushunchalar berish xam yaxshi natija beradi.

Stilizatsiya tabiatda uchraydigan o‘simliklar, hayvonot dunyosini, uy-ro‘zgor buyumlarini tabiiy ko‘rinishdan ancha soddalashtirib, eng ixcham ko‘rinishlarda tasvirlash demakdir. Naqsh chizishni o‘rganuvchilar ana shu usulni batafsil tushungan xolda egallab olishlari lozim. Chunki ko‘pgina naqsh kompozitsiyalari ana shu tarzda qayta ishlangan turli-tuman shakllar, tasvirlar yordamida qilinadi.

Nakkoshlik san’atining ildizi juda kadim utmishimizga borib takaladi. Insoniyat uzi uchun zarur bulgan jamiki buyumlarni badiiy bezab, takomillashtirib kelgan. Oddiy ruzgor buyumlaridan tortib, kiyim-kechak, kitob, bino bezaklari xamma-xammasi naksh elementlari yordamida bezatiladi. Xalk amaliy san’atida bezak elementlari tabiatda uchrovchi usimlik dunyosi, gul, novda, barg va xayvonlar tasvirini eng sodda kurinishlarida aks ettiriladi.

Ma’lumki xar bir naksh namunasi uziga xos naksh elementlarini yigindisidan iborat. Stilizatsiya asosan usimlik va xayvonot dunyosidan olingan turli shakllar masalan, butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar va shu kabilarning tabiiy shakllarini kayta ishlash demakdir. Bunda tanlangan shaklni naksh kompozitsiyasi tarkibiga kushish mumkin bulgan bezak shakliga keltiriladi. Bunda ukuvchi butun bir yaxlit predmetning tashki kurinishlarini bir nechta badiiy chiziklar yordamida anik lunda kilib tasvirlashni urganadi. Xalk ustalari kadimdan kullab kelayotgan jami nakshlar tabiat xamda vokelikning shartli tasviri bulishiga karamasdan uziga xos konun-koidalarga ega. Bu konun-koidalar tabiatning uzidan olingan. Usimliklar fakat bir tomonga karab usadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga karab teskari usayotgandek tuyuladi, lekin novdadan barg bulib, bir tomonlama yunalishda davom etib keladi. Tabiatning bu konuni nakshda uz aksini topgan. Usta chizadigan naksh shunchaki kogoz betini tuldirish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik konun-koidalariga amal kilgan xolda manzara tasvirini chizishdan iboratdir. Badiiy naksh ishlash jarayonida ukuvchilar kuyidagilarni puxta uzlashtirib olishlari zarur:

atrof muxitdagi, tabiatda mavjud bulgan tabiiy shakllarni kayta ishlash, ya'ni stilizatsiyalash yullarini bilishlari, undan samarali foydalana olishlari kerak.

berilgan naksh elementlari yoki namuna asosida yangi naksh kompozitsiyasini tuza olishlari.

mustakil ravishda yangi naksh kompozitsiyasini tuza oladigan bulishlari.

Nakshlar buyumga, devorga yoki biror joyni bezamasin uziga xos uslubiga, texnologiyasiga va mazmuniga ega buladi. Nakshning uzi nima? Uning kaday turlari bor? Naksh tili deganda nimani tushinasiz?

Naksh - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. kush, xayvon, usimlik, geometrik va boshka elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan xosil kilgan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtaduzlikda, zarduzlik, kulolchilik, zargarlik, gilam tukish, yogoch uymakorlik va xokazolarda xar xil yullar bilan nakshlar ishlanadi. Masalan: uyib, chizib, chok yordamida zarb bilan kadab va boshka usullarda naksh solinadi.

Ganch uymakorligida ishlatiladigan nakshlar mazmuniga kura - usimliksimon, geometrik, gulli girix, ramziy va boshka turlarga bo'linadi. Usimliksimon naksh tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, guncha va boshka narsalarni nakkosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum konuniyatlar asosida takrorlanishidan xosil kilingan. Geometrik naksh turlaridan biri girix bulib, chigal, tugun ma'nosini anglatadi. Xandasiy naksh murakkab naksh turi. Geometrik naksh marakkab nakshdan biri bulib turtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan kupburchaklardan iborat buladi. Tuzilishi jixatdan tugri chizik, egri chizik va aralash chiziklardan tashkil topgan girixga bulinadi. Geometrik naksh uzluksiz raportlardan tashkil topgan bulib, xar bir raport uz tuzilishiga ega buladi. Yevropada arabeska deb yuritiladi.

Gulli girix usimlik va geometrik naksh elementlaridan tashkil topadi. Uning elementlariga yukorida sanab utilgan geometrik va usimliksimon nakshlar kiradi.

Ramziy nakshlar esa kabutar, sher, balik, davlat gerbi va boshkalarni stillashtirib tasvirlangan naksh elementlaridan tashkil topadi.

Ota-bobolarimiz kadimiy obidalarini nafis nakshlar bilan bezar ekanlar, ulardan zavk olish bilan bir katorida ular orkali uz orzu-umidlarini, muxabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Nakkosh ota-bobolarimiz inson ruxiyatini juda chukur va xar taraflama urganib uylarini ajoyib nakshu-nigorlar bilan boyitganlar. Nakshlangan uyda kishilar xotirjam, ruxiy osoyishtalik ogushida bulishi, uzok umr kurishini donishmand bobolar asrlar davomida xayotiy tajribalar asosida ilgaganlar.

Keksa ustalarimiz aytishicha, kadimda nakkoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki buyagan nakshlari orkali bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplasha olar ekanlar. Nakkoshlik san'ati tilini bilish uchun nakshning xar bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilmok kerak.

Amur Temur, Alisher Navoiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xisrav, Kamoliddin Bexzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Bobur kabi jaxonga mashxur olim, shoir va nakkoshlar binolarimizni kishilar xayolini uziga tortuvchi, tabiatning guzal manzaralariga monand nakshlar bilan bezaganlar. Kishilarning guzallik bilan yakin dust, birodar bulishga undaganlar.

Chunonchi, Samarkandning eski shaxar markazi, ya'ni Registonda savlat tukib turgan SHerdor madrasiga bir nazar solaylik. Uning peshtoklari, baxaybat gumbazlari va chiroyli minoralari, rang-barang sirli koshinlari xamda nafis, xashamatli, dabdabali ishlangan jimjimali koplamasi kishini xayratga soladi.

Ushbu Madrasa boshka me'moriy yodgorliklar singari uz mazmuniga va tarixiga ega. Buxorodagi Ashtarxoniylerden Muxammad Imomkulxon davrida xonning eng ishonchli xamda yakin kishisi, ya'ni Samarkand xokimi Yalangtushbiy Baxodir nixoyatda boyib ketgandan sung, Samarkanda Mirzo

Ulugbek madrasasining karshisida 1619-1636 yillarda zamonasining mu'jizasi xisoblangan SHerdor madrasasini kurdirtiradi.

Bu ajoyib bino shaxarning kurkiga kurk kushib, barcha shoiru-olimu, ulamo-yu, fuzalolar va shaxar xalkining olkishiga sazovor buladi, Yalangtushbiy Baxodir me'mor Abdu Jabbor oldiga xech bir narsadan uzining ulug ajdodlaridan kolishmasligini nakshlar orkali xalkka yetkazish vazifasini kuygan. San'at kalitini egaplagan mashxur me'mor uz oldiga kuyilgan falsafiy fikrni naksh tili bilan xalkka unsiz ovozda yetkaza bilgan. SHerdor madrasasining bosh fasadi jozibali chikkan bulib, uning peshtogi mutanosib (simetrik) kilib ramziy nakshlar bilan bezatilgan, kizgish zarxal yulbarssimon sherlar nozik oxularga kuvib yetib tashlayotganini va ularning ortidan kulib turgan odam kiyofada kuyosh esa zarxal yogdu bilan xoshiyalangan.

Ularning atroflaridan islimiy nakshu nigoralar ishlangan. Tasvirda epchil, kuchli, yengilmas sher ramziy ma'noda Yalangtush Baxodirga ishora kilingan, uning mukoyasi kilib kuchsizlik ramzi tarikasida oxu tasvirlangan. Kuyosh esa usha davr va xayot ramzi tarikasida olingan. Zangori rangli koshinlar orkali koinotni va tinchlikni noziklik usimliksimon nakshlar orkali bogu bustonni, tabiatni aks ettirgan.

Xush nakkoshlikda ramz nima? - U arabcha "ishora kilmok" suzidan olingan, tabiatan, vokealikni xayotdagi kuvonch va tashvishlarni dust va dushmanlarni, yaxshilik va yomonlikni naksh elementlari, jonli chiziklar, ranglar orkali tasvirlashdir.

Naksh elementlari bilan tanishtiruv mashgulotlarida ukituvchi ukuvchilarni tabiat kuyniga sayoxatga olib chikadi va ular mashgulotlarda urgangan nazariy xamda amaliy bilim malakalari asosida, usimliklar, xayvonot dunyosini kuzatadilar va "stilizatsiyalashtirish" orkali ularning badiiy tasvirlarini, shakllarini xosil kilish bilan bevosita shugullanadilar. Ukuvchilarga maxsus ketma-ketlik asosida tuzilgan rangli yoki ok-kora foto-suratlardan foydalanish orkali tushunchalar berish xam yaxshi natija beradi.

Stilizatsiya tabiatda uchraydigan o‘simliklar, xayvonot dunyosini, uy-ruzgor buyumlarini tabiiy kurinishdan ancha soddalashtirib, eng ixcham kurinishlarda tasvirlash demakdir. Naksh chizishni urganuvchilar ana shu usulni batafsil tushungan xolda egallab olishlari lozim. Chunki kurgina naksh kompozitsiyalari ana shu tarzda kayta ishlangan turli-tuman shakllar, tasvirlar yordamida kilinadi.

Nakkoshlik mashgulotlari jarayonida naksh elementlarini chizish va ularni xosil kilish tartiblari yullari va usullari uzlashtirib boriladi. Dastlabki mashgulotlarda naksh elementlari tarzida kuyidagi shakllar chizib urganiladi.

barglar (barg elementlarini chizish).

gullar (gul elementlarini chizish).

novdalar (novda elementlarini chizish).

boglam va sirtmok (ularni elementlarini chizish).

tanob (tanob elementlarini chizish).

margula va kurtak (uning elementlarini chizish).

madoxil elementlarini chizish.

gajak va jingalak elementlarini chizish.

bofta va shkufta elementlarini chizish.

Odatda badiiy nakshlar chizishda kuprok barg tasvirlaridan foydalaniladi. Bunda barg islimiy naksh elementlari sirasiga kirganligi sababli nozik, nafis kurinishlarda tasvirlanadi. Nakkoshlar tol, anor, xurmo, bodom, sambit, xina, atirgul, uzumlar va shu kabilar barglarini stilizatsiyalashtirib, naksh kompozitsiyasini tuzishda kadimdan foydalanib kelganlar.

Gullar - islimiy naksh elementi bulib, nakshlarga targil pardozi berilganidan sung yanada kurk va xusn bagishlaydi. Gul elementlari asosan naksh shakllarining markaziy kismlariga joylashtiriladi. Gullarning xam bexisob turlari mavjud bulib, uziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va

murakkab kurinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, kuvachagul, karnaygul, safsargul, atirgul, nargizagul va boshka gul turlari kiradi.

Novda - usimliksimon naksh elementi sirasiga kiradi. Gul, barg, mevbarg va boshka elementlarini uzaro boglab biriktirib tuldiradi. Namoyon ruta, morpech, munabbat, turunj va turli murakkab naksh kompozitsiyalarida novda elementlari yakka va kush bandlarda uchraydi.

Tanob naksh namunalaridagi asosiy shakl yullarini yasaydi. Bunday shakl nomlari mexrob, medoxil kalampir, gardish va shu kabilar bilan ataladi.

Madoxil – islimiy naksh elementi. Madoxil lola, tumor, uchburchak kurinishini eslatuvchi shakllar misolida uchraydi.

Shkufta – islimiy naksh elementi. Kiskacha shkuft deb xam ataladi. Shkufta asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak – gajak kurinishlarida uzaro boglaydi.

Ramziy nakshlar – kabutar, sher, balik, davlat gerbi va boshkalarning stillashtirib tasvirlangan elementlaridan tashkil topadi.

Ota-bobolarimizning kadimiy obidalarini nafis nakshlar bilan bezar ekanlar zavk bilan bir katorda ular orkali uz orzu umidlarini, muxabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Nakkosh, ota-bobolarimiz inson ruxiyatini juda chukur va xar taraflama urganib ularni ajoyib nakshu nigorlar bilan boyitganlar. Nakshlangan uyda kishilar xotirjam, osoyishtalik ogushida bulishi, uzok umr kurishni donishmand bobolar asrlar davomida xayotiy tajribalar asosida ilgaganlar. Nakkoshlik san’ati tilini bilish uchun nakshning xar bir elementi va ranglarining ramziy alifbosini bilmok kerak bulgan.

Nakkoshlikda ramz nima?

Ramz arabcha “ishora kilmok” suzidan olingan, tabiatni, vokelikni, xayotdagi kuvonch va tashvishlarni, dust va dushmanlarni, yaxshilik va yomonlikni naksh elementlarini, jonli chiziklar, ranglar orkali tasvirlashdir.

Endi uzbek milliy naksh tili alifbosi bilan tanishib chikamiz. Ular kuyidagilardan iboratdir:

Geometrik naksh elementlarining ramziy ma'nolari.

Teng tomonlari uchburchak – tik turgan xolati xayotning boshlanishi. Teskari turgan xolati esa xayotning oxirini bildiradi.

Teng yonli uchburchak – yaxlit bulingan bulak, ayrilik.

Kvadrat – dunyoning turt tomoni, osmon saroyi, kuyosh farzandi, abadiylik, yoruglik, mustaxkamlik.

Tugri turtburchak – ishonch.

Romb – ayol, ya'ni yor ramzi, serfarzandlik.

Aylana – olam, baxt, kuyosh odamlarni yovuz niyatidan kaytarish ramzi.

Besh kirrali yulduz - xayotning kiskaligi, besh kunlik dunyo.

Yarim aylana – baxt.

Yarim oy – islom dinining ifodasi. Musulmonlik ramzi.

Kuyosh - xayot ramzi.

Bulut, olov - goliblik ramzi.

Islimiy naksh elementlarining ramziy ma'nolari.

Bodom – baxt-ikbol.

Barg – baxorgi uygonish.

Kalampir - xar kanday yomonliklardan va yomon kuzdan asrash ramzi.

Zirk guli (gulsafsar) – osoyishtalik va umr uzokligi.

Anor – ezgulik, tukchilik.

Oygul – baxt-ikbol ramzi.

Jingala – tukin-sochinlik, boylik ramzi.

Olma – muxabbat ramzi.

Novda – boylik va farovonlik.

Yaprok - baxorgi uygonish, navruz.

Isirik - yomon kuzdan asrash ramzi.

Atirgul – guzallik ramzi.

Kush va xayvonlarning ramziy ma'nolari.

SHer – mardlik, adolat va kuchlilik ramzi.

Tulki – makkorlik.

Chumoli – donolik, xokisorlik ramzi.

Bulbul – sadokat.

Xumo – baxt keltiruvchi kush.

Boykush – baxtsizlik, vayronalik.

Balik - mashxurlik ramzi.

Sichkon – uy xayvonlarining kupayishi ramzi.

Echki shoxi, kuchkor shoxi – jasurlik, mardlik, pokizalik ramzi.

Ok kabutar – tinchlik .

Oxu – guzallik, noziklik

II-BOB. NAQSH KOMPOZITSIYALARINI TUZISH

QONUNIYATLARI VA BOSQICHLARI

2. 1. Naqqoshlik mashg'ulotlarida kompozitsiya tuzishning asosiy qonunlari usul va vositalari

Har kandy ijodkor o'tmishdagi naqqoshlik san'ati ustalarini merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini xam o'rganadi.

Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalarini mazmuni va g'oyaga buysinish kompozitsiyani asosiy qonunlari deb xisblanadi.

Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, xajm, «pyatno», oralik xarakter nusxa, imo – ishora bilan ifodalanadi.

Xaqiqat qonuni – asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu naqsh solingan buyumga mos naqsh shakli va elementlarining o'ziga xosligi.

Tipizatsiya qonunining ikkinchi belgisi – bu solingan naqsh mazmunini tasvirlaydi.

Amaliy san'atda buyumlarga solingan naqsh mazmuniga ko'ra hayotni tasvirlaydi. Ayniqsa ko'p figurali kompozitsiya mavzudagi mohiyatni xar xil holatda aks ettiriladi.

Tipizatsiya qonuning uchinchi belgisi bu – yangilikdir.

Realistik san'at xaqiqatni to'g'ri ifoda etib qolmay, naqqosh his tuyg'ularini, estetik go'zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi.

Badiiy obrazdagi estetik sifatlar, kompozitsiya yechimidagi yangiliklar naqqosh tomonidan kashf etiladi.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir. Inson predmetlar shaklini faqat soya va yorug' kontrastik orqali sezadi va o'z ongiga singdiradi.

Kompozitsiyaning tuzilishida «Psixologik kontrastlar» xam mavjud. Naqqoshlik san'at asarlarini tahlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o'z moxiyatini asta – sekin yo'qotib, yangi kompozitsiya qoidalari paydo bo'la boshlaydi. Naqqoshlikda asar yaratishda naqqoshlar tabiiy va ongli ravishda

kompozitsiya qonunlariga rioya qilishadi. Har bir ijtimoiy – jamiyat san’at oldida yangi zamonaviy vazifalarni ko‘ndalang qo‘yadi.

Hozirgi vaqtda biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruhga ajratamiz.

1. Kompozitsiya qonunlari.
2. Kompozitsiya qoida va usullari.
3. Kompozitsiya usul (yullari).

Kompozitsiyani asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy kurilmasini joylashtirish.

Ritm xayotda va san’atda mavjudligi naqqosh uchun yaxshi belgi, vositadir u bir elementni oralikda galma –gal qaytarilishidir. Asar g‘oyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini uynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

Kompozitsiya usullari. Uzoq kenglikni ochiq joyda gorizontal holatda tasvirlansa, kenglik bepoyon, katta bo‘lib tuyuladi.

Kompozitsiyani paralel, vertikal yunalishda bo‘lishi tantanali ulug‘vor, kutarinki rux holatini anglatadi.

Asarda harakat yunalishini o‘ngdan chapga susaygan holati masofani chuqurligini ifodalashga imkoniyat beradi.

O‘rta Osiyo xalq amaliy san’ati qadimdan mashxur. Ota-bobolarimiz yaratgan nodir san’at asarlari, ular qurgan muxtasham binolar, arxitektura yodgorliklari hozirgi kungacha o‘z maftunkorligini yuqotmagan. Xatto chet ellik sayyohlar ham qadimiy yodgorliklarni ko‘rib lol qolmokdalar. Bular jumlasiga Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Kalon minorasi, Samarqanddagi Shoxizinda maqbarasi, Guri Amir maqbarasi, Ulug‘bek, SHerdor Tillakori madrasalari kiradi. Yuzlab xalq me‘morlarining qo‘llari bilan yaratilgan jonli naqshlar kishilarga ko‘tarinki rux bag‘ishlaydi. Chunonchi Ulug‘bek madrasasini tomosha qilar ekanmiz, uning ta‘lim-tarbiya maqsadida bunyod etilganligi naqqoshlar bezagi orqali sezilib turibdi. Madrasa bezagidagi bir-birini kesib o‘tgan behisob chiziqlardan tashkil topgan naqshlar charaqlab turgan

yulduzlarni eslatadi. Ana shu ko‘p burchakli va qirrali yulduzlardan tashkil topgan geometrik naqshlar girix deb yuritiladi.

Girix – forscha chigal, tugun degan ma’noni anglatadi. Girix murakkab naqsh turiga kiradi. Geometrik naqsh muayyan taqsimlarga ega bo‘ladi. Har bir taqsim o‘z tuzulishiga ega bo‘ladi. Girix Urta Osiyoda va yaqin sharqda keng tarqalgan naqsh bo‘lib, XII-XYI asrlarda ayniqsa O‘rta Osiyoda juda keng tarkalgan va taraqqiy etgan. Yana Pokistonda, Turkiya, Ispaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda xam keng taraqqiy etgan. Dunyoda girixni eng ko‘p tarqalgan joyi O‘rta Osiyodir.

Bu girix kompozitsiyalarini arxitektura minoralaridan tortib, kitob muqovalarigacha bezatilganligini guvoni bo‘lamiz. Usha davr uchun girixni chizmachilik asboblari, matematika formalari asosida ishlanishi katta ilmiy kashfiyot edi.

Sharqning mashxur olimlaridan Abdulvafo al Buzjoniy (940-998) o‘zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar yechimi to‘g‘risida yozib qoldirgan. Bu kitoblarda girixlar yechimining ba’zi oson yo‘llari tushuntirib o‘tilgan. Bu kitob hozirda Parijdagi muzeylarning birida saqlanmoqda. Abdulvafo al Buzjoniy asarlarida girixlar haqida ma’lumot berilgan bo‘lsada, ularning ko‘pchiligini yechimi hali ham jumboqligicha qolgan. XYII asrga kelib girix san’ati juda kam ishlatiladigan bo‘ldi. Girixchi ustalar nihoyatda kam qolgan, uni chizish qiyin bo‘lganligi tufayli xamma ustalar xam chiza olmaganlar. Usha davrlarda girix naqshini yaxshi bilgan ustalar yetuk ustalar bo‘lib xisoblanganlar. Shunday ustalardan biri Usta Shirin Murodovdir. U yangi girixlarni osonlik bilan chiza olgan hamda o‘z o‘rnida ustalik bilan qo‘llay olgan. U o‘z davrida girixni piri hisoblangan.

San’atshunos olimlar L.Rempel “Panjara”, “Arxitekturniy ornament Uzbekistana”. M.Bulatovning “Geometricheskaya garmonizatsiya Sredney Azii IX-XY vekov” kabi asarlarida girix xaqida batafsil yozib o‘tganlar. Zamonamizning girixkor ustalaridan biri Z.Bositxonovdir. U o‘zining 300 ga yaqin yangi girix naqshlari bilan respublikamizda mashhurdir. Girix o‘simliksimon naqshlardan farq qiladi. Geometrik naqsh elementlari 4 qismdan

(yasovchidan) uchburchaklar, to'rtburchaklar, ko'pburchaklar va egri chiziqlardan tashkil topgan. Hozir respublikamizda talantli amaliy san'at ustalari Maxmud Usmonov, Zokir Bostixonov, Anvar Ilxomov, Komil Karimov, Umar Toxirov, Ziyoviddin Yusupov, Xayotilla Abdullayev va boshqalar zamonaviy muxtasham binolarni bezatishda qo'llangan girixlari o'zining soddaligi va go'zalligi, yechimining originalligi va mukammalligi bilan ajralib turadi.

Kompozitsion vositalar. Chiziq, shtrix, rangli va chizma perspektiva, soya – yorug', rang, havoli va rangli prespektivalar kompozitsiyaning vositalaridir.

Chiziqni esa tasviriy san'atning asosiy vositalaridan biri deyish mumkin. Undan uzoq muddatli, qisqa muddatli chiziqlar bilan kompozitsiya eskizlarida foydalaniladi. Naqqosh qog'oz tekisligida naqsh shaklini ochroq, to'qroq chiziqlar orqali ifodalashi mumkin.

Kompozitsiyani amalda dastlab chiziq tasvirda bajariladi. Keyingi bosqichda shtrix chiziqlarni qalinligi orqali naqsh turini soya, yorug' joylariga shakl berib, chuqurlik, masofani ifodalashga beradi.

Rang va tusli dog' kompozitsiya mashg'ulotida muhim rol o'ynaydi. Asarda naqshlar plastik xajm, chiziqli, xavoyi, rangli perspektivalarni roli kattadir.

Biz bu kompozitsiyaning asosiy vositalarni qayd qilib o'tdik.

Kompozitsiya kursini asosiy vazifasi talabalarda ijodiy fikrlashni, san'atni idrok etishni va tahlil qilishni, hayotni kuzatish va shakliy tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy – pedagogik faoliyatiga tadbiq qilishdir.

Kompozitsiya amaliy hamda nazariy qismdan iborat.

Nazariy ma'ruzalar auditoriyadagi amaliy mashg'ulotlarni, uy vazifalarini ongli ravishda bajarishni idrok etadi.

Kirish qismida kompozitsiyaning asosiy qonun – qoidalari, usul va vositalarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'atda naqsh turlaridagi kompozitsiyani o'ziga xos muammolarini, san'at asarida mavjud qonun talablarini ifodalaydi.

Kompozitsiya nazariyasidagi bilimlarni chuqur uzlashtirishda, maxsus seminar va mashg‘ulotlarni roli katta. Bulardan tashqari talabalarni mavzular asosida referat yozib ma’ruzalar bilan chiqishlari, ularni muhokama qilish yaxshi natija beradi.

Amaliy qismida asosiy maqsad talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllanishiga, hayotni kuzatish, uni tasviriy vositalar bilan aks ettirish, bosqichma – bosqich eksizini oxirigacha yetkazishdan iboratdir.

Amaliy mashg‘ulotlarda kompozitsiya eskizini mazmun g‘oyasini maqsad va vazifalarini ongli ravishda idrok etish muhimdir.

Bajarilgan amaliy vazifalarni kamchilik va sabablarini muxokama qilib tushuntirib ijodiy fikrlashni shakllantirish lozim.

San’at muzeylari, badiiy kurgazma zallariga, ekskursiya, yetuk rassomlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular bilan suxbatlar utkazish, talabalarda badiiy ongni boyitadi.

Berilgan mavzu bo‘yicha eng «yaxshi kompozitsiya eskizi uchun» talabalar o‘rtasida konkurs e’lon qilib yaxshi eskizlardan kurgazmalar tashkil kilishi, goliblarni ragbatlantirish ijodiy samara beradi.

Amaliy san’at tushunchasiga naqqoshlik, misgarlik, zargarlik, badiiy kulolchilik san’ati, xaykaltaroshlik, gilamdo‘zlik kabi qator amaliy san’at turlari kiradi.

Bu yuqorida sanab o‘tilgan amaliy san’at turlarining xar biri ijodkor tanlagan voqelikni, mavzuni o‘ziga xos vositalarda, badiiy tilda tasvirlaydi. Bu san’at turlari ichida eng keng tarqalgani sifatida naqqoshlik san’atini e’tirof etish mumkin.

2.2.Naqqoshlik mashg‘ulotlarida mustakil naqsh kompozitsiyalarini tuzish

Xalq amaliy san’atining kaysi bir turi bulmasin uning zaminida naqsh elementlaridan tuzilgan kompozitsiya yotadi.

Naqsh kompozitsiyasining bezak elementlari esa tabiatda uchrovchi gul, novda, barg, parranda va xayvonot dunyosini tasvirlashda xosil kilinadi.

Xar bir voxa va shaxarlarning naqsh kompozitsiyalari bir-biridan uzaro ajralib turadi. Xorazm, Toshkent, Fargona nakkoshlik maktablarining uz ornament va rang kollaritlari mavjud. Mustakil naqsh tuzish jarayonida stilizatsiya orkali naqsh elementlarini uzaro biriktiradilar. Naqsh bulaklarining vazifalari va ravon chizilishiga e'tibor beriladi. Gul, barg, novda, bofta va kush bandlik naqsh elementlari tuziladi.

Talabalarning fantaziyalari, mavjud naqsh elementlarini ma'lum qonun-qoidalarga amal qilgan xolda joylashtirishda ular ma'lum bilim va malakaga ega bulishlari lozimligini takozo etadi. Birgina "Bodom", "Kalampir" nusxalari shaklidan nakkoshlik, zargarlik, kulolchilik, kashtachilik, zarduzlik kabi xalq amaliy san'atida turli-tuman o'ziga xos naqsh namunalarini yaratish mumkin. Kompozitsiya tuzish yullari va ularning xomaki namunalarini tayyorlash nakkoshlik, ganchkorlik, yogoch uymakorlik va boshqa amaliy san'at turlari uchun umumiydek kurinsada, aslida kullaniladigan xom ashyosi, ijro parдоз turlari bilan farklanadi.

Kompozitsiya suzi lotincha bo'lib "joylashtirish, kurish, tuzish" degan ma'noni anglatadi. Bunda tanlangan naqsh kompozitsiyasiga kura uning elementlari kogoz yuzasida bir-biriga boglik xolda joylashib, yaxlit kompozitsiyani xosil kiladi. Tanlangan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun bir kancha xomaki eskizlar ishlanadi va ulardan talabga javob beradiganlari tanlab olinib, kompozitsiya tuzishda kullaniladi. Naqsh kompozitsiyalar tuzishda bulaklarning urnini almashtirish, kushimcha detallar kiritish orkali uning mavzusini yanada boyitish kabilar xam muxim axamiyatga egadir. Naqsh mavzusining ifodalashda kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlariga rioya kilish lozim.

Kompozitsiyada naqsh yaratish muayyan qoidasini simmetriya, assimetriya, muvozanat, detallarning ulchovi, shakli, rangi kabilarga rioya kilish tashkil etadi va bunga katiy amal kilinadi.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzishda kuprok kuyidagilarga etibor beriladi:

Naqsh namunalaridagi chiziklar xarakatining stilistik birligiga erishish .

Davriy takrorlanish.

Simmetrik joylashuv va ranglar mutanosibligini saklash.

Mustakil naqsh tukish jarayonida o'quvchilar stilizatsiya orkali tuzilgan elementlarini uzaro biriktiradigan naqsh elementlarining vazifalari va ravon chizilishiga etibor beriladi.

Mustakil naqsh kompozitsiyasini tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

Chizilajak naqsh kompozitsiyasini shakl, ulcham va taqsimlarini muljalga olish.

Kompozitsiyaning yakka yoki kush banddan iborat bulishligi nazarda tutilgan xolda tanob (yasovchi) elementi shakllarini joylashtirish.

Kompozitsiyaga novda, barg, gul va boshqa naqsh elementlarini kiritib mukammallashtirish.

Naqsh bandini bofta, shkufta elementlari bilan boglab boyitish.

Kompozitsiyaning asosiy shaklini umumlashtirib naqshni nomlash.

Kompozitsiyaning ma'no va maksadini xisobga olgan xolda rang tuslarini aniklash.

Yul, aylana, kvadrat shakllari uchun chiziladigan naqsh kompozitsiyalari xam ixtiyoriy ravishda mavjud naqsh elementlari birikmalaridan tuziladi.

Mustakil naqsh tukishni boshlashda talaba ikki, uch va undan ortik elementlar yordamida eng sodda naqsh variantlarini tuzishi mumkin. Bunda ixtiyoriy tanob shakli chiziladi va gul, novda, barg elementlari yordamida tuldiriladi. Mavjud kompozitsiyani shakl yoki gul elementlari nomlari yordamida nomlash mumkin.

Yul, aylana, kvadratga chiziladigan naqsh kompozitsiyalarini xam ixtiyoriy ravishda mavjud naqsh elementlari birikmasidan tuziladi. Xar kandy naqsh kompozitsiyalari pishik va chiroyli chizilishiga axamiyat berilishi kerak.

Elementlarning uzaro tartibli joylashuvi naqshning jozibasini yanada oshiradi.

Mustakil naqsh kompozitsiyasini tuzishda xam ustalari ijodini kuzatish, xalq amaliy san'ati muzeyiga borish va nusxa kuchirish yaxshi samaralar beradi.

Oddiy naqsh kompozitsiya tuzish.

Boshlangich sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish odatda talabalarda bu borada ayrim nazariy va amaliy tushunchalar, ish tajribalari xosil bulganidan sung mustakil topshirik sifatida berilishi mumkin. Dastlab talabalar buyum yoki yuza sirtini, uning o'ziga xos ulchamlarini diqqat bilan kuzdan kechirib, bulajak naqsh kompozitsiyasining shakl va elementlarini "xayolan" tanlab oladilar. Albatta, bu naqsh elementlari talabalar tomonidan kachonlardir uzlashtirib olingan yoki kuzatilgan naqsh bulaklaridan iborat bo'ladi. Bunda talabalarning tasavvurlari, ish tajribalari, fikr yuritishlari kanchalik yaxshi rivojlangan bulsa, shuningdek, xotiralari zaxirasida kanchalik kup naqsh elementlari mavjud bulsa, ular ajoyib naqsh kompozitsiyalarini tuzishlari mumkin bo'ladi. Tuzilajak naqsh kompozitsiyalari bulaklar asosida tuzilib, uning nusxasi maxsus usulda kerakli joylarga kuchirilib tushiriladi. Bu usuldan foydalanish uzok vaqtlar mobaynida nakkoshlar mexnatini ancha yengillashtirib kelmokda. Shu kursatmalarga muvofik shakl yasovchi reja- kolip 4\1 nisbatda chizib olinadi. Ramka chiziklari yakka, kush va bir necha kushimcha chiziklardan iborat bulishi mumkin. Patnis kurinishidagi bu shaklga bofta va gajak elementlari ulanadi. Navbatdagi boskich yakka yoki kush bandli tanob yasovchisini topishdir. Tanob shakli mexrob va yurak shaklidan iborat bulishi xam mumkin. Mashklar davomida chiziklar xarakatining ravonligiga shakl chiziklarining kiyshik yoki sinik xolatda chizilib kolmasligiga e'tibor karatiladi. Yakka band yulidan iborat tanob ayrisi shkufta elementi bilan boglanadi. Endi yuza bushliklariga gul, novda, barg va boshqa elementlarni bir-biriga boglagan xolda joylashtirish rejalashtiriladi. Novda shakllar buyicha xarakatlantirilib chizib boriladi. Kompozitsiya tarkibidagi novdaning chizilishi gul va boshqa naqsh elementlarining bir-birlari bilan yaxlit, uzviy boglanib ketishini ta'minlaydi. Naqsh namunasiga novda, gul va barg elementlarini joylashtirish, ya'ni ulash natijasida kompozitsiya mazmuni tugal yechimini topadi, mavjud naqsh kompozitsiyasi patnis kurinishidagi naqshlar turiga xos bulganligi sababli "Patnis islimi" deb ataladi.

Kompozitsiya rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin buyicha tarkaluvchi ranglar va elementlarning uzaro mutanosibligi xisobga

olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining korallama nusxasi chizib olinadi. Sung, ana shu korallama asosida (lozim topilgan takdirida ayrim uzgartirishlar kiritish orkali) xar bir bulakka ishlov berilgan xolda uning nusxasi kerakli joylarga kuchiriladi va yaxlit naqsh tuziladi.

Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. U elementlari ma'lum tartibda takrorlanadigan kush, xayvon, o'simliklar, geometrik shakllar va boshqalarning ma'lum tartibda takrorlanishidan xosil kilingan bezakdir.

Naqshlar mazmuniga kura o'simliksimon, geometrik naqshlarga, gulli girix, ramziy va boshqa turlarga bulinadi. O'simliksimon naqsh tabiatdagi barg, band, daraxt, buta guncha va boshqa narsalarni nakkosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan xosil kilingan. Geometrik naqsh turlaridan biri girix bo'lib, chigal, tugun ma'nosini anglatadi. Xandasiy naqsh - murakkab naqsh turi. U geometrik naqsh turlaridan biri bo'lib, turtburchak, uchburchak, aylana va yoylardan xamda kupburchaklardan iborat bo'ladi. Geometrik naqsh uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir rapport o'z tuzilishiga ega bo'ladi.

Ruta - ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, ya'ni xoshiya naqsh. Uning ulchami kupincha 14-20 sm atrofida bo'ladi. Xoshiya naqsh turli xil bo'lib, uning mexrobg, xonaga ishlanishiga karab lula xoshiya, ishkom va boshqa turlari bo'ladi.

Munabbat - arabcha o'stirmoq degan ma'noni anglatadi. Asosi kvadrat yoki turtburchakdan tashkil topib, to'rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbatdan foydalaniladi. Munabbatning o'simliksimon, geometrik va boshqa kompozitsion turlari bor. Uning munabbati mexrob, munabbati bofta, munabbati islimi, munabbati girix va boshqa atamalari mavjud.

Turunj - arabcha "limon" degan ma'noni bildiradi. Ruscha medalyon. Naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi.

Turunj xech kandy naqshga ulanmay muallak turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib, boyitilgan.

Namoyon - forsha kurinish, manzara demakdir. Namoyon xech nimaga ulanmaydigan mustakil kompozitsiya bo'lib, murakkab naqsh turiga kiradi. Uning o'simliksimon, geometrik, gulli girix, ramziy va boshqa turlari mavjud.

Namoyonlar simmetrik va assimmetrik tuzilishga ega bo'ladi.

2 . 3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 7 – sinf tasviriy san'at darslarida, “Amaliy bezak san'atining obrazli tizimi” mavzusining o'qitish uslubiyati

Topshiriq. Tabiiy shakllarni stilizatsiyalashtirish yordamida naqsh elementlarini hosil qilish.

Material. Oq qog'oz, qalam. o'chirg'ich, akvarel bo'yog'i, mo'yqalamlar.

Darsning mazmuni. 1. *Nazariy qism.* Tabiiy shakllar va ularning ramziy ma'nolari haqida ma'lumot berish. 2. *Amaliy qism.* Tabiiy shakllarni stilizatsiyalashtirish yordamida amaliy sarfatda qo'llaniladigan naqsh elementlarini chizish.

Xalq amaliy san'ati azaldan kishilar turmushini bezash vositasi bo'lib kelgan. Qadimda uylar, masjidlar. madrasalar ana shu san'at turi yordamida bezatilgan va maxsus bo'yoqlarda sopollarga, koshinlarga, rangin ipaklar yordamida kashtalarga bitilgan. Bu bezaklarning namunalari hozirga qadar saqlanib qolgan. Bizga zamondosh bo'lgan xalq ustalari va chevarlar bu an'analarni davom ettirmoqdalar.

Bezaklar va ularni yaratishning o'ziga xos tizimi mavjud. Bu obrazli tizim o'zida ko'pgina ma'no va mazmunlarni aks ettiradi. Masalan, kashtachilikning so'zana, palak, dorpech, kashta va joynamoz kabi turlari mavjud. Ularning o'ziga xos maqsadi va vazifalari bor. Kashtalar, odatda, katta o'lchamlarda tikilgan va xonalarni bezashda qo'llanilgan. Kashtalardagi naqsh kompozitsiyalari oq yoki rangli matoga ipaklar bilan tikiladi.

Kashtalarning naqsh elementlarida hayvon va o'simlik dunyosining ramziy shakl va ma'nolari stilizatsiyalashtirilgan holda qo'llaniladi.


So'zanalarda naqsh elementlari ko'proq doira shakliga bo'ysundiriladi. Dumaloq ko'rinishlardagi bezak elementlari koinot va inson o'rtasidagi bog'liqlikni

anglatadi. Ularning kompozitsiyasida o'simliksimon naq elementlari ham aralashtirilgan holda qo'llaniladi.

Uning ichki qismida bezak vazifasini o'taydigan zardevor va palaklai ham asosan doira shaklidagi naqshlar qo'llaniladi.

O'zbekiston amaliy bezak san'atida soddalashtirish va badiiylashtirish hisobiga turli tabiiy shakllarning naqsh elementlari sifatida qo'llanishida h o'ziga xos ramziy ma'no bor. Masalan, naqshda paxta elementining qo'llanilishi: mazkur ekinning milliy iftixor tariqasida tarannum etilishini anglatadi. 5 bo'is ham o'zbek chinni buyumlarining eng qadrlisi aynan paxta gulli choyn piyola, kosa-tovoqlardan iboratdir. Naqsh elementlarida anor, olma, bug'd uzum va uning yaprog'i, jonli mavjudot tasvirlari — qo'chqorning shoxo'rozning toji va boshqa tasvirlar ham badiiylashtirilgan holda amaliy bezak san'atida qo'llaniladi. Shuningdek, boshqa misollarni ham ko'rsatish mumkin. Masalan: Anor — to'qchilik va to'kin-sochinlik ramzi. Anorgul — kulolchilik, miskarlik, kashtachilik, to'qimachilik, naqqoshlikda ko'p ishlatilgan. Bodom — baxt-iqbol ramzi. Zirk guli — juda chiroyli yaproqli gul, C Osiyo naqshlarida qadimdan ajdodlarimiz tomonidan osoyishtalil umrboqiylik ramzi sifatida qo'llanilib kelinadi. Kabutar — tinchlilik osoyishtalilik, oygul — baxt-iqbol ramzi.

Gul, butoq, daraxt singari islamiy naqshlar ramziy ma'nolarni o'z mujassam etgan. Masalan, gullagan bog' ramzi — hayotning go'zalligi, 1 farovonlik kabi sifatlarga bog'langan. To'lqinli o'simlik poyasi — tinimsizlik va tabiat tarovati, to'lqinlar — shiddatli hayot oqimi, gul esa yorug'ining go'zalligi va hokazolarning ramziy ifodalarini anglatgan.



Naqqoshlikda g'uncha dementi ham ko'p qo'llaniladi (22-rasm). U hayotning davomiyligi, ajdodlar o'rnini avlodlar egallab borishini anglatadi. Lola ham bahor, yoshlik va jo'shqinlik alomati sifatida ko'p qo'llaniladigan element hisoblanadi (20-a rasm). Tabiatdan olingan barg ham naqsh kompozitsiyasini to'ldiruvchi va uning jozibasini oshiruvchi element sifatida ko'p ishlatiladi. Barglarning tabiiy ko'rinishini stilizatsiyalashtirilgan variantlari asosida oddiy va murakkab barglar ixtiro qilingan. Ular shobarg, qo'shbarg, ko'pbarg, chor barg (to'rt bargli naqsh elementi) deb ataladi (22-rasm). Naqsh kompozitsiyalarida jiyda guli, gultojixo'roz elementlarini ham uchratish mumkin.

O'zbekiston amaliy bezak san'atida qo'llaniladigan naqsh ramzlari, ularning tabiiy shakli va stilizatsiyalashtirish haqida tasawurga ega bo'ldingiz. Endi o'zingiz uchun tanish bo'lgan tabiiy materiallarni stilizatsiyalash orqali naqsh elementlarini chizing. Stilizatsiyalash — shakllarni badiiyalashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Stilizatsiya nima?

2. Naqsh elementlarini stilizatsiyalash yordamida hosil qilishda nimaga asoslaniladi?
3. Stilizatsiyalashtirilgan tabiiy shakllar qanday ramziy ma'no kasb etadi?
4. Siz yana qanday tabiiy shakllarni stilizatsiyalashtirib naqsh elementlarini hosil qilgan bo'lar edingiz? Shu haqda o'ylab ko'ring.

MAVZU AMALIY BEZAK SAN'ATINING OBRAZLI TIZIMI

Topshiriq. Turli shaklda (kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, aylana va h.k.) naqsh kompozitsiyasini tuzish.

Material. Qog'oz, qalam, o'chirg'ich, sirkul, chizg'ichlar.

Darsning mazmuni. 1. *Nazariy qism.* Amaliy bezak san'atida qo'llaniladigan shakllar, ranglar va ularning ramziy ma'nosi haqida; amaliy bezak san'ati, uning turlari va maktablari, mashhur ustalar haqida ma'lumot berish. 2. *Amaliy qism.* Geometrik shakl asosida naqsh kompozitsiyasini tuzish.


Naqsh namunalarida qo'llaniladigan turli geometrik shakllarning ham ramziy ma'nolari bor. To'rtburchak (g'isht, xisht) — ishonch ma'nosini anglatadi. Bir-biriga qalashtirib tikilgan, to'qilgan va chizilganligi g'ishtdan qurilgan imoratning mustahkamligi, unda insonlarning xotirjam yashashi ma'nosini anglatadi. Shuning uchun naqshda gullar, yo'llar — islamiy elementlar, girixda qo'llaniladigan geometrik shakllar bir-biri bilan qalashtirib, aralashtirib.



Farg'ona naqshi. Qo'qon. XIX asr boshi.

o'raltirib tasvirlanadi. Boisi, insonlar hayoti bir-biri bilan bog'liq: bir s; bir mamlakat, bir maktab, bir sinf, bir tashkilot bir oilada yashaydi, 1 qiladi, o'qiydi. Naqqoshlik san'atida to'rt tomoni teng to'rtburchak kvadrat (1 quadratus, arabcha murabba) — abadiylik, yorug'lik; romb - 01 besh qirrali yulduz — dunyoning o'tkinchi ekanligi; quyosh —

hayol bulut, olov — g'oliblik ramzi; aylana — baxt, insonlarni yovuz niy;
qaytarish; yarim oy (oygul), Humo qushi — baxt-iqbol; yangi < oy —
musulmonlik ramzi; qalampir — yomon ko'zdan asrash; > muhabbat; bulbul —
sadoqat; oq kabutar — tinchlik; boyo'g'li (boy hushyorlik; tulki — ayyorlik,
makkorlik; sher — mardlik, jasorat; noziklik, go'zallik, himoyasizlikni anglatadi.
Xalq amaliy bezak san'atida qo'llaniladigan ranglar ham o'ziga xo: mazmun kasb
etadi. Qora — motam, sariq — ayriliq,




Xiva naqshi. XIX asrning birinchi yarmi.

tozalik, yorug'lik, baxt; zangori — oliy e'tiqod; ko'k — moviy osmon, tinchlik; qizil — g'alaba, shodlik va xursandchilik; yashil — ona-tabiatni ifoda etadi.

Amaliy bezak san'atida qo'laniladigan ramziy shakllar va ularning ma'nosi insonlar hayoti kabi tarixiy va rang-barang, insonlar hayoti bilan hamnafas. Insonlarning hayoti, turmush tarzi, mahalliy sharoiti turli-tuman bo'lganligi uchun amaliy san'atda qo'llaniladigan ramziy shakllar, rang va tasvir usullari ham turlicha bo'ladi. Ivtisol uchun, naqqoshlik san'atini olsak, unda Farg'ona, Xiva va Toshkent naqsh maktablari mavjud. Ularda o'zbek xalq amaliy san'atining xususiyatlari bilan birga mahalliy o'ziga xoslik bor.

Bu maktablarning kompozitsiya uslubi va rang berishdagi o'ziga xosligida Farg'ona maktabi naqshlarida chetlari chiroyli qilib aylantirilgan, ranglar esa qizil va yashil bo'yoqlarining to'yingan tuslari bilan bo'yaladi. Xorazmda esa usta musavvirlar naqsh yuzasini novda-yoi va g'uncha,



shuningdek, geometrik naqshlar bilan to'ldirib, asosan, moviy rangli bo'yo bilan go'zallik yaratadilar. Toshkent maktabi naqshlarida ran koloritining qat'iyliigi, naqsh elementlari, ayniqsa, gullar, barglarga n bilan targ'il berish orqali ular jozibasi ta'minlanganligini ko'ramiz. Ulai xildagi ranglarning turli tuslarini qo'llashga ko'proq e'tibor qaratadilar I rasm).

Toshkent naqqoshlik maktabining shakllanishi va rivojlanisr Yoqubjon Raufov, Toir To'xtaxo'jayev, Jalil Hakimov, Anvar Ilhoi kabi naqqoshlar, Toshpoiat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, O Fayzullayev kabi ganch va yog'och o'ymakorlarining xizmati k boigan.

Toshpo'lat Arslonqulov (1882—1962) (26-rasm). *Ganch o'ymak O'zbekiston xalq rassomi* (1944), *Davlat mukofotining laureati* (1948), *necha orden va*

medallar bilan taqdirlangan. Bir gator madaniy, maishb ma 'muriy binolarni, shu jumladan, XX asrning boshida xususiy uy




*keyinchalik, Abror **Hidoyatov** nomidagi O'zbek drama teatri, Alisher Navoiy nomidagi Davlat opera va balet akademik Katta teatri binolarini bezashda ishtirok etgan.*

Xiva naqqoshlik maktabida esa Ota Polvonov, Abdulla Boltayev, Ro'zimat Masharipov, Odamboy Yoqubovlar o'z asarlari bilan boy madaniy meros qoldirganlar.

Farg'ona naqqoshlik maktabi vakillarining ijodida yuqorida aytib o'tilgan o'ziga xoslikdan tashqari. Toshkent va Xiva naqqoshlik maktablarining an'analarini qo'llash hollari ham uchraydi. Saidmahmud Norqo'ziyev, Abdug'ani Abdullayev, Asqar Akbarov. Qodirjon Haydarov kabi ustalar nafaqat O'zbekistonda, balki bir qator chet mamlakatlarda ham o'zlarining noyob san'atlarini namoyon etganlar.

Buxorolik Usta Shirin Murodov. samarqandlik Usta Kuli Jalilov, Usta Snamsiddin Jaiilovlar mamlakatimizdagi ko'plab madaniy-ma'rifiy binolar quriiishida ishtirok etgan mashhur naqqosh, ganch va yog'och o'ymakorlaridandir.

Usta Shirin Murodov (27-rasm). 1879-yilda Buxoro shahrida ganch oymakori *ustasioilasida* tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi (1943), Davlat mukofotining laureati (1948), bir qancha orden va medullar bilan taqdirlangan. Buxoro, Samarqanddagi qadimiy me'moriy obidalarni ta'miniashda, Buxorodagi Sitorai Mohi-Xosa, Toshkentdagi **Muqimiy** nomidagi musiqali drama teatri, Navoiy nomidagi Davlat opera va



balet akademik Katta teatri binosining qurilishida ishtirok etgan. 1957 Toshkent shahrida vafot etgan.


Qodirjon Haydarov (28-a rasm) 1899-yilda Qo'qon shahrida tug O'zbekiston Xalq rassomi, davlat mukofotlarining laureati. Asarlari O'zb* tarixi muzeyida, xalq amaliy san'ati muzeyida saqlanadi. U Tarix muzeyi, O'zb Badiiy akademiyasining «Xamar» ko'rgazmalar zalining o'ymakor eshiklarini is!

O'zbekiston xalq amaliy san'atida qo'llaniladigan naqsh elementlari ularning tabiiy va stilizatsiyalashtirilgan variantlari, naqsh elementlari ramziy belgi va mazmuni haqida tasavvurga, amaliy san'at usta naqqoshlar, ganch va yog'och o'ymakorlari haqida ma'lumotga ega bo'lgan taassurotlaringiz, egallagan bilimlaringiz

asosida mustaqil tarzda kompozitsiyasi tuzing. Uning shaklini (doira, kvadrat, yo'l ichida) ix tarzda olishingiz mumkin. Naqsh kompozitsiyasida ramziy sh ranglarning bir-biriga mutanosib bo'lishiga e'tibor bering.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savoiilar

1. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati buyumlarini bezashda qanaqa shakllar qollaniladi?



Mustaqil o'rganish uchun adabiyotlar

1.1. Azimov. O'zbekistonning naqsh-u nigorlari. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyo va san'at nashriyoti. 1987.

2. S. Bulatov. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o'ymakorligiga oid atamala izohli lug'ati. T., Mehnat nashriyoti. 1981.

3. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T., «Mehnat» nashriyoti. 1981
4. Q.Qosimov. Naqqoshlik. T., 1982.
5. M.Usmonov. San'atim - saodatim. T., 1983.
6. H.Karimov. Usto Qodir. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'e nashriyoti. 1981.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishimda bo'lajak naqqosh va naqqoshlikdan dars beradigan pedagogga yuqori didli, boy fantaziyali, nafosat bilan, borliqqa ijodkorona yondosha oladigan, shuningdek xalq amaliy san'at turi hisoblangan naqqoshlikning yangidan-yangi qirralarini, sir-sinoatlarini bilishga, shuningdek, naqqoshlik san'ati tarixida o'zining tinimsiz izlanishlari asosida naqqoshlikka xos bilimlarini namoyon qilgan namoyondalarning ijodiy faoliyatlari bilan tanishishga doir ma'lumotlar o'rganildi va tahlil qilindi.

Ushbu metodika asosida tashkil etilgan naqqoshlik mashg'ulotlarida geometrik naqsh elementlarining ramziy ma'nolari, islamiy naqsh elementlarining ramziy ma'nolari, qush va xayvonlarning ramziy ma'nolari ushbu turda ijod ilgan naqqoshlar, ularning maktablari, asarlaridagi manbaalarga tayanildi.

Bu esa o'z navbatida bo'lajak naqqoshlarni mohir naqqosh bo'lib yetishishida muhim o'rin egallaydi.

«Naqqoshlik mashg'ulotlarida kompozitsiya tuzish asoslari» mavzusida ijodkorlik asosida bajarish bo'yicha malaka-ko'nikmalar hosil qilib va ularni mustaqil ishlash uchun tavsiyalar berildi;

Mazkur bitiruv malakaviy ishi barcha amaliy san'at yo'nalishidagi naqqoshlik fanini samarali o'zlashtirishda xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. –T.: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik.–T.:O'zbekiston, 1993.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. –T.: O'zbekiston, 1995.
6. Bulatov S.S. O'zbekiston halq amaliy bezak san'ati. -T: Mehnat, 1991.
7. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'at.-T: qomuslar bosh tahririyati, 1992.
8. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi.-T: Cho'lpon, 1999.
9. Qosimov Q. Naqqoshlik.-T: O'qituvchi, 1990.
10. G'ulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish.- T.:«Bilim»,2004
11. Azimov I. O'zbekiston naqshu nigoralari.-T: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1987.
12. «Naqqoshlik»dan ma'ruzalar matni. K.M.G'ulomov, B.Xolmatov. 2003.
13. www.nbgt.intal.uz
14. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari. Toshkent., 2003.
15. Tojiyev B. “Kompozitsiya” fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent. 2000.
16. Tojiyev B., Oripova N. Rangtasvir va kompozitsiya. Toshkent. 1995.
17. Abduraxmonov G'.M. «Kompozitsiya». «Moliya-iqtisod» nashriyoti. Toshkent. 2008.







